


# O'ZBEK MUTAFAKKIRLARINING TIL NAZARIYASIGA OID QARASHLARI



*Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari*

2021-yil 15-mart

## VIEWS OF UZBEK THINKERS ON THE THEORY OF LANGUAGE

*Materials of the international scientific  
and theoretical conference*





ALİSHER NAVOİY NOMİDAGİ  
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TİLİ VA ADABIYOTİ UNIVERSİTETİ



TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE END  
LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVO'I

O'ZBEK MUTAFAKKIRLARINING TIL NAZARIYASIGA OID  
QARASHLARI

VIEWS OF UZBEK THINKERS ON THE THEORY OF  
LANGUAGE

*Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari*  
2021-yil, 15- mart

*Materials of the international scientific and theoretical  
conference*



Тошкент – 2021

Babür, mızacı itibariyle, bilginin esiri bir insandır. En uzak seferlere çıktığında bile yazı ve kitaptan ayrılmamış; gerekli gördüğü her şeyi yanında götürmüştür. Hicrî 935 [M. 1528-1529] yılında ordusuyla birlikte Behâr ve Bengâle taraflarına çıktığı seferden dönerken, konakladıkları bir yerde bir gece şiddetli fırtına çıkar ve otağı yıkılır; kâğıtları ve kitapları ıslanır. Duruma belli ki canı çok sıkılan Babür gerisini şöyle anlatır: “*Bunları iskarlat sediye kilimine sarıp, sediye altına koyarak, üzerini kilimle örttük. İki geri sonra yağmur dindi. Yatak (töşekhane) çadırını kurdurup, mum getirtip ve müşkülatla ateş yakarak, sabaha kadar uyumadan, kâğıtları ve kitapları kurutmakla meşgul oldum.*” [604]. Koca bir padişah düşünün ki, uzak diyarlarda, gecenin bir yanında ıslanmış kâğıt ve kitapları bizzat kendi elliyle kurutmakla meşgul olsun... İşte onu üstün kılan şey, bu mızacıdır.

Sonuç olarak, Babür’ün dillere olan ilgisi, onu zamanla -dönemi ölçünde- bir dilci yapmıştır. Zira sözcüklerin köken ve manasına dair yapmış olduğu çözümleme denemeleri, imla ve inşa ile ilgili faaliyetleri, yaşadığı dönemin şartlarında, ona bu payenin verilmesi için yeterlidir. Bu çalışmada görüldüğü üzere, Babürname’ye aynı zamanda küçük bir sözlük yerleştirmiştir. Bu yönüyle de aynı zamanda bir sözlükü (leksikograf) olduğunu söyleyebiliriz.

#### Kaynaklar:

1. AKÜN, Ömer Faruk [1991], “Bâbürnâme”, *Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi*, [IV, 404-408], İstanbul: Türkiye Diyanet Vakfı Yayıncıları.
2. AZİMJONOVA, Sabohat; QAYUMOV, Aziz [1965], *Zohiriddin Muhammad Bobir, Asarlar*, 3 Tomlik, Tom I. (Devon), Toshkent: Toshkent Badiiy Adabiyot Nashriyoti.
3. *Baburnama*, III C., [1993], (Çağatayca Aslı. Abdurrahim Hanhanan’ın Farsça Tercümesi ve İngilizcesi; hzl: W. M. Thackston; yayınlayanlar: Şinasi Tekin, Gönül Alpay Tekin), Harvard: Harvard Üniversitesi Yakındogu Dilleri ve Medeniyetleri Bölümü.
4. *Baburnâme “Babur'un Hâtiratu”*, [2000], (hzl.: Reşit Rahmeti Arat), Ankara: Kültür Bakanlığı Yayıncıları.
5. BAYDEMİR, Hüseyin [2010], “Bâbürnâme’de Folklorik ve Etnografik Unsurlar”, *Gazi Tûrkiyat*, S. 7, s. 108-134.
6. CEYLAN, Nimet [2009], *Gazi Zahiriuddin Muhammed Bâbur Mirza'nın Eserlerindeki İkilemeler*, [Yayımlanmamış Yüksek Lisans Tezi], Adana: Çukurova Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü.
7. GÜLBEDEN [1944], *Hümayunnâme*, (Farsçadan çeviren: Abdürrehab Yelgar; kadınların tercümei halleri hakkında yazılan kısmı İngilizceden çevirenler: Abdürrehab Yelgar ve Eymen Manyas; giriş ve tarihi özeti yazan: Hikmet Bayur), Ankara: TTK Yayıncıları.
8. KONUKÇU, Enver [1991], “Bâbür”, *Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi*, [IV, 395-396], İstanbul: Türkiye Diyanet Vakfı Yayıncıları.

## FURQATNING SO‘Z XUSUSIDAGI QARASHLARI VA SO‘Z QO‘LLASH MAHORATI FURKAT’S VIEWS ON WORDS AND HIS ABILITY TO USE THEM

N.Jabborov  
*ToshDO‘TAU professori,  
filologiya fanlari doktori*

**Annotatsiya:**maqolada Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqatning so‘z qadri va mas’uliyati haqidagi qarashlari tahlil etilgan. Shoирning ulug‘ so‘z san’atkori bo‘lib yetishuvi omillari ilmiy asosda yoritilgan. Mutafakkirning lirik asarlarida so‘z qo‘llash mahorati tadqiq qilingan. Furqatning ona tilimizga, turkiy so‘zga muhabbatni va mas’uliyati ijod ahlining bugungi avlodni uchun ham ibrat bo‘la olishi xususida fikr yuritilgan. So‘zning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatiga doir shoir qarashlari hech bir zamonda ahamiyatini yo‘qotmasligi isbotlangan.

*Kalit so‘zlar: she’r, shoir, so‘z, til mas’uliyati, so‘z qo‘llash mahorati.*

**Abstract:** Zakirzhan Kholmuhammad ougli Furkat’s views on word value and responsibility of its usage are analyzed in the article. The factors of his becoming a prominent poet are scientifically highlighted. The thinker’s word usage skills in his lyrics are studied. It is also discussed that his love and responsibility to our native language and Turkic words could serve as an example for today’s writers and poets. The fact that the poet’s views on the importance of words for the humanity and society never lose its significance for many centuries.

**Key words:** a poem, a poet, a word, language responsibility, word usage skills.

So‘zni sevmay, so‘zni qadrlamay, so‘z aytish mas’uliyatini his etmay turib, nafaqat shoir yoki yozuvchi, adabiyotshunos yoki tarjimon, hatto tuzukroq odam bo‘lishning ham iloji yo‘q. Negaki, odamzod so‘z tufayli sharafga erishganidek, so‘z bois izzat-hurmatini yelga sovurmog‘i ham mumkin. Aytarini aql elagidan o‘tkazmagan, ko‘ngil tarozisida o‘lchamagan kishi elning nazaridan qolishi aniq. So‘zni nozik his etgan, bilib aytgan, fasohat va balog‘at bilan qog‘ozga bitgan odam esa el ichra azizu mukarramdir. So‘z ahli – shoiru adiblarning jamiyatdagi o‘rni yuksak ekani sababi ham shunda. Buyuk ijodkorlarning so‘zga, tilga bo‘lgan e’tibori darajasini anglash, ulardan ulgu olish shuning uchun ham muhim hayotiy ehtiyojdir. Benazir asarlari bilan adabiyotimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan, yangi zamon she’riyatining, nasrining tamal toshini qo‘yan ulug‘ shoir va mutafakkir Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqatning so‘zga munosabatini, ulug‘ so‘z san’atkori bo‘lib yetishuvi omillarini hamda so‘z qo‘llash mahoratini o‘rganish ana shu maqsadga xizmat qiladi [Jabborov, 2020: 64].

**Shoirning so‘z haqidagi qarashlari.** Furqat so‘zni insonga ato etilgan ulug‘ ne’mat deb bilgan. Ulug‘ ijodkor “Shoir ahvoli va she’r mubolag‘asi xususida” deb nomlangan manzumasida ijod ahlining qalb qo‘ri bilan aytilgan haroratlari, ba‘zan mubolag‘ali so‘zlariga noo‘rin baho beruvchilarni qoralaydi. Uning fikricha, shoir shuning uchun ham shoirki, u: “Na xush ko‘rsa olamda ta’rif etar, Ani yaxshi so‘z birla tavsif etar”. Aslida ham, ijod ahli ko‘nglida hayrat va ibrat uyg‘otgan hodisalar bilan bog‘liq tuyg‘ularini nafis so‘zlar vositasida ifodalaydi, bu orqali o‘quvchi shuuridagi ezgu orzularga qanot beradi, uning qalbiga halovat bag‘ishlaydi. O‘tgan asr avvalidagi Rus-yapon urushi va unda chor Rusiyasining mag‘lub bo‘lishi millat ziyoilari qalbida Turkiston ozodligi bilan bog‘liq yangi orzu-umidlarni paydo qilgani ma’lum. Ana shu tarixiy voqeaga bag‘ishlangan asarida Furqat mana bunday yozgan edi:

Kimikim mard erur insof lozim,

Bilurg‘a so‘z durin sarrof lozim [Фурқат, (II) 1959: 43].

“Sarrof” so‘ziga lug‘atda *qimmatbaho toshlarni baholovchi, zarshunos*, deya ta’rif berilgan [Шамсиев 1972: 550]. Shunga ko‘ra, shoir mard bo‘lmoq uchun insof nechog‘liq zarur sanalsa, so‘z mohiyatini chuqur bilmoq, teran anglamoq uchun sarrof bo‘lmoq, ya’ni uning qimmatini to‘g‘ri baholay bilish zarur, demoqchi. Ushbu asarni shoir ifodalagan darajada tushunmoq uchun undagi ramzlar, obraz va timsollar mohiyatini bilish kerakligini ta’kidlar ekan, muallif quyidagicha yozadi:

Bu so‘zning ramzini dono bilur bas,

Nechuk otashga toqat aylagay xas?! [Фурқат, 1959 (II) : 43]

Chindan ham, so‘zning ramzini anglay bilish tuyg‘usi hammaga ham berilmagan. Shoir o‘z asarlardan ko‘zlangan asl maqsadni kelajak avlodlar to‘g‘ri tushunmog‘ini istaydi. So‘z ramzini donolargina bilishini alohida ta’kidlaydi.

So‘z qadrini bilgan, uning insoniyat uchun nechog‘liq ulug‘ ne’mat ekanini chuqur his etgan Furqat so‘zlamoqda andisha bo‘lmog‘i zarurligiga alohida diqqat qaratadi. Shoir fikricha, har bir odam o‘zi bilgan, ma’nosini teran uqqan holda so‘zlamog‘i ma’qul. Mashrab g‘azaliga tazmin sifatida yozilgan “Lozim emas” radifli g‘azaldan olingan quyidagi bayt shu haqda:

Qosir aqling birla sun'i Kibriyodin urma dam,  
Bilmag'on odamga bu nozik suxan lozim emas.

Furqat asarlarida "so'z" kalimasi o'rnida ba'zan uning *suxan*, *kalom*, *nukta* singari sinonimlari ham faol ishlataladi. Jumladan, ushbu baytdagi "suxan" so'zi "nozik" sifati bilan birga qo'llangan. "Sun" – lug'atda *yaratish*, *san'at* demakdir. Kibriyo – Alloh taolonning sifati bo'lib, *ulug'*, *buyuk* ma'nolarini anglatadi. Shunga ko'ra, ushbu baytda Furqat qusurli aql bilan buyuk Tangri taolonning yaratuvchilik qudrati haqida so'zlashdan tiyilish zarurligini, benihoya nazokat (ehtiyyotkorlik) bilan munosabatda bo'lishni taqozo etadigan bu nozik *suxan* bilmagan odamga lozim emasligini alohida ta'kidlaydi.

"O'tar-ketar" radifli g'azalida shoir yaxshilar suhbatida bo'lishni, yaxshi so'zlar eshitmoqni tavsiya etadi. Yaxshilar suhbatini ko'rmagan odamni ko'rga, yaxshi so'zlar eshitmaganni karga qiyoslaydi:

Yaxshini suhbatin ko'rub yaxshi suxan eshitki ul,  
Yaxshi ko'rub eshitmayin ko'r ila kar o'tar-ketar.

[Фурқат, 1959 (I): 202].

So'zga ta'rif berar ekan, shoir: "suxan ra'nosi nazm libosi birla zebo ko'runur bo'lg'ay", deya fikrini go'zal badiiy shaklda ifoda etadi. "Suxan ra'nosi" – istiora bilan ziynatlangan behad jozibali bu ibora Furqatgacha va undan keyingi biror ijodkor asarlarida kuzatilmaydi. Haqiqatan, shoir so'zni go'zal shaklda suvratlantira olgan yuksak salohiyat egasi, so'z ra'nosining eng sodiq oshig'idir. Shuning uchun ham shoir she'rlari va nasriy asarlarida so'z duru javohir kabi tiziladi, chuqur mantiq va yuksak mahorat bilan qo'llanadi. Ijodkor she'rlaridagi biror so'zni tahrir qilish yoki boshqasi bilan almashtirishning iloji yo'qligi sababi shunda.

**Furqatning ulug' so'z san'atkori bo'lib yetishuvi omillari.** Bugungi kunda shoir yoki yozuvchi bo'lish orzusida qo'liga qalam olgan yoshlarning aksari ijodni oq qog'oz yuzini qoraytirishdan iborat jo'n bir mashg'ulot sifatida tasavvur etishi achinarli. Ijod, aslida, Xudo bergen iste'dodni kamolga yetkazish yo'lidagi zahmat va mehnat ekani, chinakam shoir yoki yozuvchi bo'lish uchun tonnalab (sanab emas!), buning ustiga, muttasil ravishda kitob mutolaa qilish, buyuk shoirlar she'rlaridan o'n minglab satrlarni yod bilmox zarurligi haqida esa o'ylab ham o'tirmaydi. Kitobdan, uni o'qish zavqidan yiroq "yozg'uvchi"ning mashqlari, xoh sochma toifa so'zni his eta olmaydi, uni injra va yuksak san'at darajasiga ko'tarish yo'rig'idan bebahra o'tadi. Adabiyot bo'stoniga dastlabki qadamlarini qo'yayotgan yoki shunga taraddud ko'rayotgan yosh iste'dodlar mutolaa mashaqqatlaridan halovat topishi, badiiy so'z mohiyatini, qadrini chuqurroq anglashi uchun Zokirjon Furqat singari ulug' shoirlar bunga qanday erishganlarini o'rganmoqlari, ibrat va saboq olmoqlari zarur.

Shoirning "Ahvolot" asaridan ma'lum bo'lishicha, "birmuncha juz'iyot ilmiga iqtidori bo'lgan" otasi kichik bolalik kezlaridan oq unga fors tilini o'rgatgan. Turkiy va forsiy adabiyotga oshno etgan. Zokirjon yetti yoshga kirganda uni ilm tahsili uchun Mulla Olim ismli maktabdorga olib borgan. Dastlab Qur'oni karimdan o'n besh-yigirma mayda surani o'rganib, yod olgach, taxtaga tushgan. Furqatning o'zi "taxta"ni quyidagicha izohlaydi: "Taxta" iborati bulkim, bir pora taxta lavhag'a huruf, hijoni yozib berib, bei'rob o'qitadur. Andin keyin surai "Fotiha" din boshlab, surai "Odiyot" g'acha i'rob birla ta'lim beradur" [Фурқат 1959 (II): 133]. Shundan so'ng u olti oyda "Haftiyak"ni tamomlab, "...andak fursatda Qur'oni sharifni xatm qiladi" [Фурқат, 1959 (II): 134]. "Chor kitob"ni o'qiydi. Sakkiz yoshda Shayx Farididdin Attorning "Mantiqu-t-tayr"ini, Hofiz Sheroyi va Mirzo Bedil devonlarini mutolaa qilib, ko'p haz (bahra) topadi. To'qqiz yoshda "Chor devon"ni o'qiyotgan kezda uning muallifi hazrat Alisher Navoiyni tushida ko'radi va buyuk salafidan she'r mashqiga oq fotiha oladi. Demak, to'qqiz yoshda u she'r mulkinining sohibqironiga uvaysiy shogird bo'lish darajasiga erishadi. Bugun ijod da'vosida yurganlarning nechtasi Farididdin Attor, Hofiz Sheroyi, Mirzo Abdulqodir Bedil devonlarini mutolaa qilib bahra olgan ekan? Yoki ularidan qanchasi Alisher Navoiyning "Chor devoni"ni o'qib, haqiqiy she'riyat nima-yu so'zning qudrati nimada ekanini tafakkur qila bilgan ekan? Ana, Furqatning Furqatligi, ona tilimizni, turkiy

so‘z qudratini aql bilan anglab, qalb ila his etish barobarida forsiy she’riyat ummonida ham erkin suza olgan salohiyatl so‘z g‘avvosi ekanining siri qaerda yotibdi!!! Bu hali hammasi emas, Zokirjon o‘n yoshda Fuzuliy g‘azaliyoti va So‘fi Olloyorning “Maslaku-l-muttaqin” asarini o‘qiydi. Mulla Qambar Alidan husnixat, Ashur Muhammad ismli qoridan qiroat ilmlarini o‘rganadi.

Ana endi o‘n yoshdan e’tiboran Furqat arab tili grammatikasini o‘rganishga jiddu jahd bilan kirishadi. Posshoxo‘ja eshon otli mudarris qo‘lida Mirzo Sulaymon ibn Anvar al-Buxoriyning “Avvali ilm” risolasini, Bahouddin al-Omiliyning arab tili morfologiyasining boshlang‘ich qoidalariga doir “Bidon”, Shamsiddin Muhammad ibn Abulqosim al-Mu‘ziyning fe‘l so‘z turkumi va uning 22 bobi haqidagi “Mu‘ziy”, Ibrohim ibn Abdulhavvob az-Zanjoniq qalamiga mansub fe‘lning sulosiy (uch harfli) va ruboisi (to‘rt harfli) turlariga oid “Zanjoniq”, nahv (sintaksis) ilmi asoslariga doir ikki manba – Abdulqohir ibn Abdurahmon al-Jurjoniyning “Avomil” va Mahmud az-Zamaxshariyning “Harakot” kabi darslik kitoblaridan tahsil oladi. Shundan keyin uch yil umrini Usmon ibn Umar al-Ma‘ruf ibn al-Hojibning arab tili grammaticasi mukammal bayon qilingan “Kofiya” asarini o‘rganishga bag‘ishlaydi. O‘n to‘rt yoshidan boshlab uch yil davomida hazrat Abdurahmon Jomiyning “Kofiya” sharhiga oid xalq orasida “Sharhi Mullo Jomiy” nomi bilan mashhur bo‘lgan “Favoyidu-z-Ziyoysi” (“Ziyovuddinga foydalar”) va Abulhasan Najmuddin Muhammed al-Kotibiy al-Qazviniy (1203-1277)ning mantiq ilmiga doir “Risolai shamsiya” asarlaridan tahsil oladi. “Risolai Shamsiya”ni o‘rgangani, bu vaqtga kelib shoirning, birinchidan, arab tilini mukammal egallaganidan, ikkinchidan, ilmda yuqori darajaga ko‘tarila organidan darak beradi. Asarning to‘liq nomi “Sharhu-r-Risolati-sh-shamsiya fi-l-qavoodi-l-mantiqi-l-Aristotiliya” bo‘lib, nomlanishidan ham ayon bo‘lganidek, mashhur alloma Aristotelning mantiqqa oid asariga sharh sifatida bitilgan (Жабборов, 2020). Murakkab ijtimoiy vaziyat bois birmuncha vaqt tahsilni to‘xtatib, tirikchilik bilan shug‘ullanishga majbur bo‘ladi. Oradan ikki-uch yil o‘tgach, Yangi Marg‘ilonda ekan, bir muallim topib, “Aqoid” ta‘limini oladi.

Ma’lum bo‘ladiki, Zokirjon Furqat ana shu barcha ilmlarni, turkiy tilning fasohati va balog‘ati-yu fors, arab tillarini, Sharq adabiyotining mumtoz asarlarini o‘n yetti yoshigacha aqliga-yu qalbiga jo etib bo‘lgan edi. Bu esa, o‘z navbatida, shoir uchun so‘z san‘atining uncha-muncha qalam ahliga nasib etmagan sirlarini egallashi, ijodkor sifatida kamolga erishuv uchun mustahkam ilmiy-ma‘rifiy, adabiy-estetik zamin vazifasini o‘tagan. Mana, bugungi yosolar, adabiyot va ijod ahli kitob mutolaasi-yu ilmu irfon va so‘zni qadrlash borasida ulug‘ shoirdan nimalarini o‘rganishi kerak...

**Furqatning so‘z qo‘llash mahorati.** Shoir o‘z she’rlari bilan ona tilimizning so‘z boyligi qanchalik beqiyos va ifoda imkoniyati nechog‘liq keng ekanini isbotlay oldi. Birgina misol. Furqat Istanbul safari davrida yozilgan mashhur “Sabog‘a xitob” asarini mana bu misralar bilan boshlaydi:

Bu gulshanki, nasimi fayzi Rabdur,

Guli hilmu hayo birla adabdur [Фурқат, 1959 (II): 107].

Ushbu baytdagi “bu gulshan” jumlasini ikki xil tushunish mumkin: birinchisi, torroq ma’noda Istanbuldagi “Sabog‘a xitob” yozilgan Millat bog‘i, ikkinchisi, kengroq talqin etilsa – bu yorug‘ olam. Qanday tushunilishidan qat‘i nazar, bu gulshan nasimi – ko‘ngilga xush yoquvchi shabadasidan fayzi Rab – ilohiy fayz taraladi. Undan ham hayratlanarlisi, bu gulshan *hilm, hayo, adab* otli gullar bilan bezalgan. “Sabog‘a xitob” ona-yurtidan yiroqdagi shoirning yor-do‘stlariga yo‘llagan sog‘inchli salomi-yu, Vatandan ayriliq iztiroblari ifodasi bilangina emas, so‘zlarning inju marjondek tizilgani-yu o‘zbek tilining jozibasini bor latofati bilan namoyon eta olgani jihatidan ham, nozik ruhiy kechinmalarining betakror badiiy kashfiyot darajasida suvratlantirilgani bilan ham mumtoz she’riyatimizning betakror va yuksak namunasidir.

Asarning tahlil etilayotgan ilk bayti mumtoz she’riyatimizdagи husni matla’ san‘ati bilan ziynatlangan. Sharq mumtoz she’riyati nazariyotchisi Rashididdin Vatvot bu san‘atga quydagi talablarni qo‘ygan edi: 1) shoir she’rning birinchi baytini ohorli mazmun va mukammal badiiyatni mujassam etgan latif so‘zlar bilan nafis ifodalashi; 2) hech qanday ezgulikni ifodalamaydigan so‘zlardan saqlanishi; 3) bayt o‘qilganda, eshitguvchiga rohat bag‘ishlashi, uning ruhida ko‘tarinki kayfiyat uyg‘otishi. Atoullohu Husayniy ushbu badiiy san‘atga qo‘yiladigan talablarni yanada boyitadi: 1) har bir so‘z va ma‘no uyg‘un bo‘lishi, chuqur ma‘noni yengil so‘zlar bilan yoki

aksincha ado qilmaslik; 2) baytning ikki misrasi so‘z latofati va balog‘ati jihatdan bir-biriga mutanosib bo‘lishi – biri a‘lo, ikkinchisi adno – mazmunan nochor bo‘lmasligi; 3) ma’no mantiqan asoslangan, chuqur bo‘lishi, kelishmagan, qarama-qarshi, yaramas, urfga xilof bo‘lmasligi. “Sabog‘a xitob”ning birinchi bayti ushbu nazariy talablarga har tomonlama mukammal javob berishi jihatidan ham qimmatlidir. Ushbu bayt yaxlit holda husni matla’ san’atiga misol bo‘lsa, undagi *hilm-hayo-adab* hamda *gulshan-nasim-gul* uchliklari tanosib san’ati namunasidir. Birato‘la bir necha san’at qo‘llangani-yu quyma satrlar bilan bitilganiyoq Furqatning oz so‘zga ko‘p ma’no yuklay bilish, so‘zni badiiy san’atlar bilan ziynatlay olish salohiyati qanchalik hayratga loyiq ekanini tasdiqlaydi.

Furqatning hazrat Alisher Navoiyga uvaysiy shogird ekani aytildi. Shogirdning so‘z san’ati borasidagi iqtidori shunchalik darajada balandki, ma’lum bir obrazlar tasvirini ba’zan buyuk ustoziga azallaridagidan ham o‘tkazishga erisha oladi. Jumladan, hazrat Alisher Navoiy mashhur g‘azallaridan birida mana bunday yozadi:

*Nuqtai xoling nedin shirin labing ustidadur,  
Nuqta chun ostin bo‘lur har qaydakim yozilsa “lab”.*

[Фурқат, 1959 (II) : 133].

Quyidagi baytda Furqat buyuk salafi she’ridagi badiiyatni yanada takomilga yetkazgani kuzatiladi:

“*Nuqta lab ustida bejodur?*” dedim. Aydi kulib:  
“*Sahv qilmish Kotibi qudrat magar tahrirda?*”

[Фурқат, 1959 (I): 25].

Hazrat Navoiy baytida fikr monolog – ya’ni bir kishining nutqi orqali ifodalangan edi. Furqat uni dialogga – oshiq va ma’shuqa o‘rtasidagi muloqotga aylantirdi. Oz so‘zga ko‘p ma’no yuklay olish mahoratini namoyon etib, yarim misrada “Nuqta lab ustida bejodur?” – deya ulug‘ ustoziga baytidagi mazmunni to‘liq ifodalay oldi. Ma’shuqaning: “Sahv qilmish Kotibi qudrat magar tahrirda?” – degan javobi orqali “Kotibi qudrat – taqdir kitobini yozuvchi qudratli zot bo‘lgan Tangri taoloni xato qiladi deb o‘ylayapsanmi?” – deya oshiqni mot qilishi orqali she’rda ifodalangan mazmunning falsafiy mohiyatini yanada teran bir darajaga yuksaltirdi. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Faqat she’riyatidagina emas, nasriy asarlarida ham ulug‘ adib ona tilimizning tengsiz latofatini san’atkorona ko‘rsata oldi. Tarjimai holiga doir “Ahvolot” asarida hayoti sanalari haqida yozar ekan, ijodkor har bir yoshi haqida fikr bildirganda, bir-birini takrorlamaydigan, badiiyat jihatdan biri ikkinchisidan qolishmaydigan ohorli ta’rifu tashbehlarni keltiradi. Jumladan, sakkiz yoshga kirganini: “...vaqtim xomasi hayotim yuzidin sekiz raqamni chekti” [Фурқат, 1959 (II): 134], ya’ni vaqt qalam hayotim sahifasiga sakkiz raqamni yozdi, tarzida ifodalasa, to‘qqizga qadam qo‘yanini: “Chun umrum shohidi to‘quz parda orqasidin chehra ko‘rguzdi” [Фурқат, 1959 (II): 134] – umrim guvohi to‘qqiz parda orqasidan yuz ko‘rsatdi, deya tamomila o‘zgacha obrazli tasvir bilan beradi. O’n yoshga yetganini esa yana boshqacha: “Vaqt e vujudim qofilasi hayot tariqidin o‘n manzil tay ayladi” [Фурқат, 1959 (II): 135], shaklida izhor etadi. “Qofila” so‘zi lug‘atda – *karvon*, “tay” esa *yurmoq, kezmoq* ma’nolarini anglatadi. Demak, shoir umrining ushbu sanasini: vujudim karvoni hayot yo‘llaridan o‘n manzil yurgan kezda, deb yuqoridagilarni takrorlamaydigan shaklda, teran mazmun va ohorli tashbeh uyg‘unligida ifodalaydi.

E’tiborsizligimiz bois bugungi kunda tilimizdagagi nazokatni boy berayotgan hollarimiz ko‘p uchraydi. Furqat so‘zga shu qadar nozik yondashganki, ijodkordan bu borada saboq olish zamonamiz odamlari, ayniqsa, ijod ahli uchun benihoya foydalidir. Ulug‘ adib Xo‘jandda ekanida, kunlardan birida yaqin do‘satlari hamrohligida qo‘llarida qarmoq bilan Sirdaryo bo‘yicha chiqib, baliq ovlamoqchi bo‘ladilar. Lekin ular birorta ham baliq tuta olmaydi. Qayiqda narigi qirg‘oqqa o‘tib, sayor qilishar ekan, ittifoqo bir chaylaga va unda yashaydigan ikki ko‘zi ko‘r keksa odamga duch kelishadi. Ayni shu voqeа haqida yozar ekan, Furqat bu keksa kishini mana bunday ta’riflaydi: “*Bir mo‘ysafid kishikim, ikki ko‘zi mohiy intazorida falsi mohiy kabi oqorib, qarosi ohular diydasig‘a joy topibdur*” [Фурқат 1959 (II): 125]. “Fals” so‘zi lug‘atda *baliq tangachasi*, “mohiy” esa *baliq* ma’nosini anglatadi. Ya’ni Furqat “mo‘ysafidning ikki ko‘zi ham ko‘r ekan” deyish

o‘rniga ushbu fikrni mo ‘ysafidning ikki ko ‘zi baliq tutish ilinjida baliqning tangasi kabi oqarib, qorasi ohular ko ‘zida joy topibdur tarzida yuksak odob va benihoya nazokat bilan, obrazli va ta’sirchan ifodalaydi. Ham badiiyat talabi, ham millatimizga xos odob taqozosi ijodkorni ana shunday inja yondashuvga undagan. Ana shu kabi misollar tahlili ham Furqatning badiiy nasr tili borasidagi o‘ziga xos uslubi, so‘zga bo‘lgan mas’uliyati va yuksak mahorati isbotidir.

Furqat o‘z she’riy va nasriy asarlari orqali ona tilimizning qiyoslab bo‘lmas darajadagi so‘z boyligini, tengsiz ifoda imkoniyatini namoyon etibgina qolmadi. O‘zidagi bu noyob iqtidorni amalda el manfaati yo‘liga safarbar etish borasida ham kelajak nasllarga shaxsiy ibrat namunasini ko‘rsatdi. Birgina misol. “Ahvolot” asarida shoir mana bunday ma’lumot beradi: “...do ‘konda o‘lturub, fuqarolar arizasini yozib, mirzolig‘da yaxshi iqtidor ko‘rguzdim. Ul hojatmandlar muddaosini eshitib, berobita kalomlarini sanjida aylab, yaxshi marg‘ub iboratlar bilan yozib berdim. Mahkama tarjimonlarig‘a maqbul bo‘lub, mendin izhori xursandlig‘ ayladilar. Hamesha meni(ng) arizanavisligimni xohladilar” [Фурқат 1959 (II): 138-139]. Ya’ni savdo bilan shug‘ullangan kezları ulug‘ shoir oddiy odamlar – hojatmand kishilarning dardini tinglab, ularning muddaolarini ta’sirchan va ravon uslubda qog‘ozga tushirib bergen. Turli idoralardagi tarjimonlarga Furqatning fikrni yozma ifodalash qobiliyati boshqalarning bitiklaridan ko‘ra ko‘proq ma’qul kelgan va fuqarolarning arizani aynan unga yozdirib kelishlarini so‘ragan.

Xulosa qilib aytganda, ulug‘ shoir Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqatning ona tilimizga, turkiy so‘zga bo‘lgan muhabbatи va mas’uliyati bugungi kun odamlari uchun ham ibrat va namuna bo‘la oladi. So‘zning inson va jamiyat hayotidagi qadriga doir ijodkor qarashlari hech bir zamonda ahamiyatini yo‘qotmaydi. Shoirning so‘z san’atti sohasidagi badiiy kashfiyotlari ijod ahlining bugungi nafaqat avlodи, kelajakdagи iqtidorli qalam sohiblari uchun ham mahorat maktabi vazifasini o‘tashi mumkin.

#### Foydalaniman adabiyotlar:

1. Jabborov N. Furqat – so‘z ra’nosining oshig‘i. – Toshkent: Fan, 2020.
2. Жабборов Н. “Керак ҳар илмдин бўлмоқ хабардор...” //Янги Ўзбекистон, 2020 йил 26 июнъ.
3. Фурқат, Зокиржон. Танланган асарлар. Икки томлик. I том. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1959.
4. Фурқат, Зокиржон. Танланган асарлар. Икки томлик. II том. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1959.
5. Фурқат ижодиёти (Мақолалар тўплами). – Тошкент: Фан, 1990.
6. Шамсиев Порсо, Иброҳимов Собиржон. Навоий асарлари луғати.– Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972.

## MƏRASİM FOLKLORU: XALQ ƏDƏBİYYATININ MİFOLOJİ QAYNAĞI VƏ TƏRKİB HİSSƏSİ CEREMONIAL FOLKLORE: A MYTHOLOGICAL SOURCE AND COMPONENT OF FOLK LITERATURE

Ü.Nəbiyeva,  
Filologiya üzrə elmlər doktoru,  
professor əvəzi, Bakı Dövlət Universiteti

**Abstract:** the presented article deals with ceremonial folklore, its connection with mythological historical-magical encounters, belief in the magical power of words in different ceremonies, songs that exist in parallel with rituals and ceremonies, etc. References were made to the relevant scientific and theoretical literature, and their modern examples were analyzed.

The article draws attention to the seasonal ceremonies, their archaic examples, as well as lyrics about beliefs and beliefs in natural phenomena, which play an important role in ceremonial folklore.

Historical sources refer to the existence of the tradition of holding ceremonies and holidays in certain seasons of the year during the Goyturk period, and refer to literary sources. The article

## MUNDARIJA

<b>SH. SIROJIDDINOV</b>	Buyuk mutafakkirlarimiz tafakkuri – faoliyatimiz mezoni	<b>5</b>
<b>BUYUK O'ZBEK MUTAFAKKIRLARINING TIL VA JAMIYAT, TIL VA TAFAKKUR, TIL VA NUTQ MUNOSABATIGA OID QARASHLARI</b>		
<b>I. ТҮХТАСИНОВ</b>	Ал-Форобийнинг фалсафий-лингвистик қарашлари	<b>6</b>
<b>Х. ДАДАБОЕВ</b>	“Гул ва Наврӯз” сўз бойлигидаги семантик жараёнлар хусусида	<b>8</b>
<b>A.BİNNATOVA, R. VASİYEVA.</b>	Əmir Xosrov Dəhləvinin “Ayineyi-İskəndəri” əsəri	<b>11</b>
<b>Б. АБДУШУКУРОВ</b>	“Қутадғу билиг” ва “Қисаси Рабғузий” асарларидаги айрим лексемаларнинг қиёсий таҳлили	<b>17</b>
<b>SÜLEYMAN EFENDİOĞLU</b>	Çağatay Şairi Lutfî ve Gül ü Nevrûz Mesnevisi.	<b>21</b>
<b>Z.XOLMANOVA</b>	Zahiriddin Muhammad Boburning tilshunoslikka doir qarashlari	<b>31</b>
<b>M.GÜMÜŞ</b>	Ali Şir Nevâî'de Dil Bilinci	<b>38</b>
<b>Б.МОМЫНОВА</b>	Әл-Фарабидің сөздерді топтауы және сөздерді таптастырудагы грамматикалық категориялардың рөлі ғалымдар зерттеулерінде	<b>45</b>
<b>SH.SAFAROV</b>	Why we should still real the medieval uzbek grammarians	<b>51</b>
<b>H. BAYDEMİR</b>	Dilci ve Sözlükü Yönüyle Babür	<b>52</b>
<b>N. JABBOROV</b>	Furqatning so'z xususidagi qarashlari va so'z qo'llash mahorati.	<b>57</b>
<b>Ü. NƏBİYEVA</b>	Mərasim folkloru: xalq ədəbiyyatının mifoloji qaynağı və tərkib hissəsi	<b>62</b>
<b>M. КУРБАНОВА</b>	Абдурауф Фитратнинг лингвистик қарашлари	<b>67</b>
<b>D. YUSUPOVA, A. MALIKOV</b>	Alisher Navoiy va Aligyeri Dante: adabiy til yaratish muammosi	<b>71</b>
<b>S. ƏHMƏDOVA</b>	Haşim Bəy Saqib	<b>77</b>
<b>E. ÜŞENMEZ</b>	The manuscripts-works written by Mir A'lî Shir Navâ'î (میر علیشیر نوائی) in the British library	<b>87</b>
<b>M.ARSLAN</b>	Muhammad Yusuf'un Şiirlerinde Millet, Vatan ve Anadili	<b>94</b>
<b>Q. OMONOV, D.BAXRONOVA</b>	“Ikki til muhokamasi” asari va komparativistika	<b>105</b>
<b>U QOSIMOV</b>	Badiiy til xususiyatlari va Navoiy an'analari.	<b>108</b>
<b>Q. PARDAYEV</b>	Jadid ziyolilar ijjodida til muammosi	<b>113</b>
<b>D. ARSLAN</b>	Türkiye'de Özbek Türkçesi Üzerine Yapılmış Lisansüstü Tezler	<b>117</b>
<b>K. АНАРБАЕВ</b>	Ортағасырлық түріктердегі саяси билік пен билік иелері туралы кейбір тілдік-дүниетанымдық деректер	<b>129</b>
<b>М. ХОЛМУРАДОВА</b>	Юсуф Хос Ҳожибининг эски туркii тил имкониятларини ёритиш маҳорати	<b>133</b>